

Tursunaliyeva Muslimabonu
Matnshunoslik va adabiy
manbashunoslik mutaxassisligi
I bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.n., dotsent
Salima Rustamiy

Jomiy “Yusuf va Zulayxo” asarining o`ziga xos talqini

Ma'lumki, xalqimiz mustaqillikka erishganidan so`ng, ko`pgina sohalarning yanada rivojlanishiga e'tibor yanada kchaydi.

“Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o`z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga, o`zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda... Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi toshyozuvlar, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo`lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilikka oid o`n minglab asarlar bizning beqiyos ma'naviy boyligimiz, iftixorimizdir... Ota-bobolarimiz asrlar davomida to`plagan hayotiy tajribalari, diniy, axloqiy, ilmiy qarashlarini o`zida mujassam etgan bu nodir qo`lyozmalarni jiddiy o`rganish davri keldi”¹.

Xalqimiz e'tirofiga sazovor bunday qo`lyozmalar qatoriga Jomiyning “Yusuf va Zulayxo” asari ham muhim o`rin tutadi.

Ko`pchilikka a'yonki, “Yusuf va Zulayxo” asari deganda, xalq uning kimlar tomonidan yozilganini bilmasa-da, bu asarning ildizi diniy kitoblarda keltirilganini biladi.

1480-yildan 1485-yilning oxiriga qadar Jomiy o`zining buyuk "Haft avrang"i tarkibiga kirgan dostonlarini yaratish ustida ish olib bordi. Sharq adabiyotidagi xamsachilik an'analari asosida yozilgan bu dostonlardan "Silsilat uz-zahab",

¹Karimov I. A.. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. - Toshkent, 1998. –B. 3.

"Tuhfat ul-ahror", "Sibhat ul-abror" g'oyaviy tematik jihatdan falsafiy-axloqiy yo'nalishda, janr e'tibori bilan pandnoma tipida bo'lib, o'z davrining eng dolzarb masalalariga bag'ishlangan edi. "Yusuf va Zulayxo", "Layli va Majnun", "Salamon va Absol", "Xiradnomai Iskandariy" dostonlarida esa shoir an'anaviy sujetlarning yangicha talqinlarini berdi².

Jomiyning "Yusuf va Zulayxo", "Layli va Majnun" dostonlarida ishq va muhabbat, do'stlik mavzulari yangi ilhom, yangi she'riy harorat bilan yoritilgan bo'lib, shu an'anaviy sujetga qurilgan dostonlar orasida alohida o'rin tutadi.

Jomiy hayoti va ijodiga bo'lgan qiziqish Yevropada boshlanishi uning "Yusuf va Zulayxo" dostoniga borib taqaladi. Jumladan, 1824 yili Mavloni Jomiyning "Yusuf va Zulayxo" dostoni Vinses fon Rozensvayg-Shvannau tomonidan nemis tiliga tarjima qilinib, nashr etilgan³.

Jomiyning "Yusuf va Zulayxo" dostoni Nizomiy Ganjaviyning "Xusrav va Shirin" dostoniga javoban yozilgan. Jomiy unga ishora qilib shunday deydi:

كهن شد دولت شیرین و خسرو
به شیرینی نشانم خسرو نو
چو طوطی طبع را سازم شکر خا
ز حسن یوسف و عشق زلیخا

Kuhan shud davlati Shirinu Xusrav,
Be Shirini nishonam Xusravi nav.
Chu tuti tab'ro sozam shakarxo,
Zi xusni Yusufu ishq-i Zulayxo⁴.

"Yusuf va Zulayxo" asari 45-bobdan iborat shaklda bitilgan bo'lib, unda o'rta asrdagi an'analar sobitligi saqlab qolingani, ya'ni hamd va na't, ishq bayoni va fazilatlarini asnosida, Yusufning tug'ilishidan boshlab, uning vafotigacha aks ettirgan. Kitob intihosida yozuvchi tomonidan xulosa keltiradi.

² Masharipov X.G. Abdurahmon Jomiyning ma'naviy-ma'rifiy g'oyalari. -Urganch, 2003. -B.34.

³Edward Browne. A literary history of Persia. Vol. 3. Cambridge. 1928.

⁴ جامی "یوسف و زلیخا" ناشر: نسخه الکترونیک. ص. 7.

Jomiyning “Yusuf va Zulayxo” asari masnaviy usulida yozgan boʻlib, u muqaddima, asosiy qism va xotimadan iborat. U hajaz bahrining musaddasi mahfuz yoki maqsurda yozilgan.

Jomiyning “Yusuf va Zulayxo”si fors-tojik va turkiy tillarida bu mavzuda yozilgan asarlarning eng mukammal, ayni zamonda, badiiy jihatdan eng kuchlisi hisoblanib, u Ogahiy tomonidan mahoratli tarjima qilingan. Shuning uchun ham Jomiy qalami bilan yaratilgan “Yusuf va Zulayxo” dostoni Yaqin va Oʻrta Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan, qayta-qayta qalamga olingan mashhur syujetlardan biridir.

Ushbu asarda Jomiyning pand-nasihatlar ham berilgan boʻlib, unda insonlarga xos fazilatlar aytib oʻtiladi. Jumladan, mutafakkir shoir “Yusuf va Zulayxo” dostonida oʻgʻliga qaratilgan nasihatlarida, mansab eshigiga aslo yaqin yoʻlama, “ki az har mansabe bemansabi beh” – “har qanaqa mansabdan mansabsizlik yaxshi” deb yozadi⁵.

1483-yilda doston yozilib, oʻsha paytdagi shoh Husayn Boyqaroga bagʻishlangan. U toʻrt ming baytdan iborat boʻlib, Jomiy dostonining asosiy mazmuni “Qurʻon”ning “Yusuf” surasi asosida yozildi, ammo ushbu surada kelgan koʻpgina epizodlar dostonida qayd etilmagan.

Dostonda Yusufni Kanyondagi hayoti, otasi Yoqubni yonida boʻlishi, Yoqubni Yusufga boʻlgan mehr-muhabbati, boshqa farzandlaridan Yusufni ustun qoʻyishi, Yusufning akalari bilan qilgan safari, akalari Yusufni karvon sardoriga sotishi, Molikning Yusufni Misrga olib kelishi, unga Zulayxoning xaridor boʻlishi, ular orasidagi muhabbat va boshqa epizodlar badiiylashtirilib, nazmiy ohangda aks ettirilgan.

XVIII asr oxiri va XIX asrning boshlarida Muhammad Rizo Ogahiy Jomiyning "Yusuf va Zulayxo"sini oʻzbek tiliga tarjima qilgan.

Ogahiy tarjimasi uchun asos qilib olingan Jomiyning “Yusuf va Zulayxo” asari Yaqin va Oʻrta Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan va favqulodda shuhrat qozongan edi. Bu asarning keng xalq oʻrtasida bunday katta eʼtibor qozonishining

⁵Sulaymonova F. Aql va tafakkur kuchi –Toshkent. 1991. -B- 64.

sababi shunda ediki, Jomiy bu syujet orqali hayot va inson haqida, insonning o`ziga xos ijobiy fazilatlari haqida yozgan.

“Yusuf va Zulayxo” asarining kirish qismi 5 bobni o`z ichiga olib, unda so`z boshi, hamd, na`t, ish fazilatlari va kalom fazilatlari boblari keltirilgan. Unda asar yozilishi tarixi, Ollohning sifatleri, payg`ambarlar haqida, so`z qudrati va ishq turlari haqida bayon qilinadi. Kirish qismi 156 baytni o`z ichiga oladi.

Asarning asosiy qismida asosan, dostonning boshlanishi, Yusufning tug`ilishi, Zulayxo husnining ta`rifi, Zulayxo Yusufni tushida ko`rishi, Zulayxoning xobdan bedor bo`lishi va enagasiga o`z anduhlarini aytib berishi, enaga Zulayxodan ahvol so`rashi, Zulayxo ikkinchi bor Yusufni tushida ko`rishi, Zulayxo uchinchi bor Yusufni tushida ko`rishi, ko`plab mamlakatlardan shoh elchilarining Zulayxoga sovchi bo`lib kelishi, Zulayxoning otasi tomonidan Janob Misr Aziziga elchi yuborilishi, Zulayxo otasi uni Misrga jo`natganligi, chodir eshiklaridan Zulayxo Misr Azizini ko`rishi, Zulayxoning Misrga tashrifi va misrliklarning unga shaydo bo`lishi, Zulayxoning Yusuf firoqida kun kechirishi, akalari Yusufga hasad qila boshlagani, Yusufning quyosh, oy va o`n bitta yulduzning unga sajda qilishini tushida ko`rishi, Yusufning akalari otasidan uni ham birga sahroga olib ketishini so`ragani, Yusuf va akalarining sahroga borishi va Yusufni chohga tashlaganlari, karvon Yusufni chohdan topib olib, Misrga olib ketishi, Zulayxoning Yusufni ko`rgani, Zulayxo Harrojda Yusufni sotib olishi, Zulayxo Yusufni hizmatkor qilib tayinlashi, Yusufning Zulayxoga o`z qismati tufayli chohga tushgani haqida so`zlab berishi, Yusufning kechalarni bedor o`tkazishi, Zulayxoning Yusuf vasfiga intilishi va Yusufning undan istig`no qilishi, Zulayxoning Yusufni boqqa jo`natishi, kanizaklarning Yusufga oshiq bo`lishi va Yusuf ularni rad etganligi, Zulayxoning enagasiga iltimosi va uning ko`magida imorat qurdirgani, Zulayxo husnining vasfi, yettinchi xona voqealari, Zulayxo va Yusufning oldiga Misr Azizining kutilmagan tashrifi, Yusufning beayb ekanligiga go`dakning guvohlik bergani, misrlik ayollarning Zulayxoga ta`na qilgani va ishq g`ayratining ularni tilkapora qilganligi, Yusufning zindonband bo`lishi, Yusufning zindondagilarga ehsoni va tush ta`biri, Misr shohi uning ta`birini bilganligi,

Yusufning zindondan chiqishi va Misr Azizining vafoti, Zulayxoning yolg'iz qolishi, Misr Azizining vafotidan so'ng Zulayxoning firoq azobida qolishi, Yusuf va Zulayxoning nikohi, Yusufning vafoti va hijronlar tufayli Zulayxoning halok bo'lishi boblardan iborat. U 3818 baytni tashkil etadi.

Dostoning 45-bob xulosa bobi hisoblanib, unda asarni aynan "Yusuf va Zulayxo" deb nomlaganligi haqida aytib o'tiladi. Xulosa bobi 26 baytni tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, Jomiyning "Yusuf va Zulayxo" asardagi o'ziga xos badiiyligi, obrazlarning o'ziga xos talqini, unda so'z san'atlaridan mohirona foydalanilganligi, ishq va so'z qudratining ochib berilishi dostonni boyitib turadi. Doston tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan asar. Unda Yusuf obrazi orqali insoniy fazilatlarning ijobiy ko'rinishlari yoritib berilgan. Jomiyning "Yusuf va Zulayxo" asarida dostonchilik an'alariga amal qilingan bo'lib, bu asarning barcha boblarida o'z aksini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. -Toshkent, 1998.
2. Edward Browne. A literariy history of Persia. Vol. 3.- Cambrige. 1928.
3. جامی "یوسف و زلیخا" ناشر: نسخه الکترونیک.
4. Masharipov X.G. "Abdurahmon Jomiyning ma'naviy-ma'rifiy g'oyalari". -Urganch, 2003.
5. Sulaymonova F. Aql va tafakkur kuchi. -Toshkent, 1991.